

**“Veterinariya jarrohligi va akusherlik” kafedrasi mudiri, v.f.n., professor v.b B.D.Narziyevning “Operativ xirurgiya va topografik anatomiya” fanidan itlarda gastrotomiya, enterotomiya va ichaklarni kesish texnikasi. To‘g‘ri ichakda o‘tkaziladigan operatsiyalar. Dabbalarni jarroxlik yo‘li bilan davolash» mavzusidagi ochiq ma‘ruza mashg‘ulotining ishlanmasiga**

### TAQRIZ

Ma‘ruza mashg‘ulot mavzusi fan dasturi va fanning ishchi rejasiga mos keladi, ma‘ruza mashg‘ulot matni yangi pedogogik texnologiyalardan foydalangan holda uslubiy tomondan to‘g‘ri taqdimot qilingan. Dastlab mashg‘ulotning o‘quv elementi va tayanch iboralari, ma‘ruza mashg‘ulotning o‘qitish pedagogik texnologiyasi berilgan va o‘quv faoliyat natijalari ko‘rsatilgan.

Taqdimotda itlarda gastrotomiya, enterotomiya va ichaklarni kesish texnikasi. To‘g‘ri ichakda o‘tkaziladigan operatsiyalar. Dabbalarni jarroxlik yo‘li bilan davolash, hayvonlarda ichaklarning anatomo-topografik tuzilishi, qismlarga bo‘linishi, dabbalarni jarrohlik usuli bilan davolash texnikasi ko‘rsatib o‘tilgan. Test savollari, nazorat savollari, vazifa va aqliy hujum savollari, adabiyotlar ro‘yxati berilgan.

B.D.Narziyevning “Itlarda gastrotomiya, enterotomiya va ichaklarni kesish texnikasi. To‘g‘ri ichakda o‘tkaziladigan operatsiyalar. Dabbalarni jarroxlik yo‘li bilan davolash” mavzusidagi ma‘ruza mashg‘ulotning taqdimoti hozirgi zamon ta‘lim texnologiyalari talablariga javob beradi deb hisoblayman va uni o‘quv mashg‘ulotiga foydalanish uchun tavsiya qilaman.

**“Hayvonlar anatomiyasi, gistologiya va patologik anatomiya” kafedrasi mudiri professor, v.f.d.**



**N.B.Dilmurodov**